

FAOLIYATI

IIV Qashqadaryo akademik litseyi

Tarix fani o'qituvchisi

Poyonov Ixtiyor, Uzoqov Begali

Kalit so`zlar. *Shayboniyalar va safaviylar kurashi, Xuroson, tabobat, tabiblikka oid asarlar.*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XV asr oxiri va XVI o`rtalarida yashab tibbiyot sohasi frivojiga munosib hissa qo`shgan Xurosonlik tabib Yusuf ibn Muhammad ibn Yusuf at-Tabib al-Haraviy (taxallusi Yusufiy) haqida qisqacha ma`lumotlar beriladi.*

O`rta Osiyoda Temuriy shahzodalar o`rtasida o`zaro taxt uchun kurash avjiga chiqqan bir vaziyatda Muhammad Shayboniyxon boshchiligidagi Dashqi Qipchoq ko`chmanchilari Movaroun-nahrga bostirib kiradilar. Movarounnahrda SHayboniyxon hukmronligi o`rnatilganidan so`ng Temuriy shahzodalar o`rtasidagi kurashga barham beriladi. Lekin bu vaqtga kelib Temuriylar davlatining birqismi hisoblanadigan Xurosonga da`vo qilib chiqayotgan yangi bir siyosiy kuch Safaviylar

Shayboniylarga qarshi kurashga kirishgan edi. Xuddi shu kurashlar avjiga chiqqan bir vaziyatda o`sha davrning mashhur tabiblaridan biri Yusufiy ham Xurosondan chiqib ketishga majbur bo`ladi.

Yusuf ibn Muhammad ibn Yusuf at-Tabib al-Haraviy (taxallusi Yusufiy) XV asrning oxirlarida

Xurososning Hof shahrida dunyoga kelgan. Uning otasi Muhammad ibn Yusuf o`z davrining yetuk olimi bo`lib, fors va arab tillarini mukammal bilar, mohir tabib, lug`atshunos va tarixchi sifatida nom qozongan edi. Uning tabobatga oid arab tilida yozilgan “Ayn ul-hayot” (“Hayot bulog`i”), lug`atshunos-likka oid “Bahr al-javohir” (“Gavharlar dengizi”) va “Javohir al-

lug`ot” (“Lug`at javohirlari”) kabi asarlari dunyoning ko`pgina kutubxonalarida bosma va qo`lyozma holida saqlanmoqda. Yusufiyning tarjimayi holiga oid ma`lumotlar kam saqlangan. Uning otasi Hirotning mashhur tabibi ekanini hisobga olsak, utabobat sirlarini otasidan o`rgangan deb xulosa chiqarish mumkin. Uning dastlabki she`riy asarlari XVI asrning boshlaridanoq Yusufiy taxallusi bilan tarqala boshlaydi. Yusufiyning birinchi she`riy asari “Risola dar tadbiri makul va mashrub” (“Yeyiladigan va ichiladigan narsalar haqida risola”) 1501-yili yozilgan. 1522-yili Navoiyning “Majolis un-nafois) tazkirasini Faxriy Hirotiy

“Latoyifnoma” nomi bilan fors tiliga tarjima qiladi va o`zidan bir bob qo`shib, mazkur bobni “Oddiy

Xalqdan chiqqan shoirlar” deb ataydi. Faxriy Hirotiy mazkur bobda Yusufiy haqida ham ma`lumotlar beradi va “Mullo Yusufiy Xurosonning mashhur tabiblaridandir. Hushxulq, jahongashta va suhbat ko`rgan kishi. She`rlari pokiza” deya maqtaydi.

Bobur Hindistonga yurish qilib uni egallaganidan so`ng Yusufiyni o`z huzuriga taklif qiladi.

Bu haqda “Boburnoma”da: “Mavlono Yusuf tabibkim, oni Xurosondin tilotib erdi, nazb(tomir)

ko`rmoq va tashhis qilmoq(diagnos qo`ymoq) oning ishi erdi” deyiladi.

Yusufiyning Hindistonga ketib qolishining asosiy sababi, Hirotning notincligi edi. Hindiston o`sha vaqtda nisbatan tinch bo`lib, Hirotdagi mashhur olimlar u yerga qochib borishgach, Hindiston ilm markaziga aylana boshlagan edi. Yusufiy Hindistonga o`z oilasi bilan ko`chib borganmi yoki o`sha yerda uylanganmi, bu haqda ma`lumot yo`q. Ammo, u 1533-yili Hindistonda yozgan “Badoe al-insho” (“Maktub yozish san`ati”) asarini o`g`li Rafiuddin Husaynga bag`ishlaydi. XVI asrning boshlarida Hirotda siyosiy va iqtisodiy ahvol keskinlashuviga qaramay, Yusufiyning ijodi sermahsul bo`ldi. Navoiy tashkil etgan shifoxona – Dorushshifoda ko`pgina tabiblar davolash ishlari olib borgan bo`lsalarda, ulardan hech qanday asar qolgan emas. Ammo

Yusufiyning yozgan asarlari bizgacha deyarli to`liq yetib kelgan. Uning tibbiyotga oid 14 ta nazmiy va nasriy asari, odob-axloqqa oid ikki asari va maktub yozish san`atiga oid bitta asari dunyodagi bir qancha kutubxonalarda saqlanmoqda. Yusufiyga ko`proq shuhrat keltirgan asari uning ruboiy janri bositasida yozilgan “Iloj ul-amroz” (“Kasalliklar davosi”) asari bo`ldi. 1509-1510-yillar atrofida yozligan bu asar tez orada

Hirotning “nomdor” fozillari diqqatini o`ziga tortdi va ular ruboilyardagi murakkab dorilarga sharh yozishni Yusufiydan iltimos qilishadi. Yusufiy esa bu sharhni 1512-yili yozib tugatdi va “Jomi ul-favoyid” (“Foydalar majmuasi”) deb atadi. Mazkur asarga kiritilgan 291 ta ruboiyning har biri birorta kasallikka bag`ishlangan bo`lib, ularda Yusufiyning qimmatil tajribalari va tabobatdagi yangiliklari jamlangan. Bu asar O`rta Osiyo va Hindistonda keng shuhrat topgan. Yning Yusufiy hali tiriklik paytida 1535-yili Buxoroda ko`chirilgan nusxasi C 1098 raqami bilan. Sankt-Peterburg Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Mazkur asar 1870-yildan to 1908-yilgacha Hindistonda “Tabib Yusufiy” nomi bilan 11 marta nashr qilingan. O`zbekiston Fanlar Akademiyasi

Sharqshunoslik institutida uning 30 dan ortiq qo`lyozma va ko`pgina bosma nusxalari saqlanmoqda.

1666-yili Hindistonning Siyolkut shahrida yashovchi Muhammadshoh ibn Hakim Shayx

Valiyulloh mazkur asarga sharh yozadi va uni “Murakkaboti “Tibbi Yusufiy” (“Tabib Yusufiya”ning murakkab dorilari”) deb ayatdi. 1869-yili hindistonlik Abdulalim Nasrulloxon Ahmadiy al-Hishagiy Yusufiyning ruboilariga yana sharh yozadi va uni “Al-muolajat ul-murabba bin-nusaxil mujarabba” (“Sinalgan retseptlar bilan tugallangan davolashlar”) deb atadi. Bu sharh ham keng tarqalgan bo`lib, “Sharhi ruboiyyoti “Tibbi Yusufiy” (“Tibbi Yusuf” ruboilarining sharhi”) degan nomda, litografik usulda Hindistonning turli shaharlarida ko`plab nashr etilgan.

Yusufiyning tibbiy ruboilariga O`zbekiston hududlarida ham qiziqish kuchli bo`lgan.

1882-yili Xorazmlik Muhammad Amin ibn Muhammad Zahirxo`ja al-Husayniy al-Xorazmiy (Xodim) uni o`zbek tiliga tarjima qilar ekan, tarjima muqaddimasida: “....kitobi “Jomi ul favoyid-kim, “Tibbi Yusufiy” birla mashhurdirkim, mavlono Yusuf tabib rahmatullohning musannafotidur, ruboiyot ishtimol qilg`on vajhididn o`zgalardin diqqatlig`dur, xohladimkim, oni tarjima qilg`ayman,to turk jamoasi ondin foydamand bo`lg`ay” deb yozadi. 1897-yili Toshkentlik Muhammadshoh xo`ja valadi Fayzullo xo`ja uni ikkinchi marta o`zbek tiliga tarjima qildi va “Tarjimayi shohiy” (“Shohiy tarjimasi”) nomi bilan litografik usulda chop ettirdi.

Yusufiyning ruboiylaridan tashqari boshqa asarlariga ham qiziqish kuchli edi. Uning “Favoyidi ahyor” (“Hayrli kishilarga foydalar”) va “Iloj ul-amroz” (“Kasalliklar davosi”) asari Tal`atiy nomli shoir tomonidan “Mag`z ut-tib” (“Tabobatning mag`zi”) nomi bilan turk tiliga tarjima qilingan.

Uning “Anvor ul-Hikmat” (“Hikmat nurlari”) risolasi esa 1906-yili Kogonda nashr qilingan.

Toshkentda esa o`zbek tiliga tarjima qilinib, toshbosmada chop etilgan. 1533-yili Hindistonda yozilgan “Badoe ul-insho” (“Maktub yozish san`ati”) asari Xorazmda mullo Bobojon Xudoyerberdi Sanoiy tomonidan o`zbek tiliga tarjima qilingan.

Yusufiyning ilmiy me`rosini o`rganish tabobat tarixini yoritishda katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO`YXATI.

1. Mahmud Hasaniy., Surayyo Karimova, Karim Rasulov. Tabobat ummonidan Tomchilar – Toshkent “O`zbekiston” nashriyoti. – 2016-yil.

2. H.Hikmatullayev. Roziy va uning shogirti yozib qoldirgan kasalliklar tarixi. Toshkent, “Fan” nashriyoti, 1974-yil. 49-bet.
3. I.Nizomiddinov. O`rta Osiyoning chet el sharqi bilan aloqalari, Toshkent “Fan” nashriyoti, 1961-yil. 58-bet.
4. Fahriy Hirotiy. Latoyifnoma, Tehron, 1942-yil, 9-majlis, 156-bet.